NORMUROD NORQOBILOV HIKOYALARIDA PEYZAJNING POETIK FUNKSIYASI

Mo‘minova Moxitabon
FarDU 2-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya
ushbu maqolada Normurod Norqobilovning “Keksa tut” va “Yetim qolgan gullar” hikoyalaridagi peyzaj, uning poetik funksiyasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda peyzajning asar kompozitsiyasidagi va qahramonlar ruhiyatini ochishdagi o‘rni yoritiladi. Tut va garmsel obrazlari orqali ma’naviy qadriyatlar, inson va tabiat bilan bog‘liq munosabatlar ochib beriladi.
Kalit so‘zlar: *peyzaj, hikoya, ramz, ekologik muammo, kesa tut, garmsel.*

KIRISH

Hozirgi adabiy jarayonda Normurod Norqobilov ijodi obrazlar olamining turfa xilligi bilan ajralib turadi [1:13].

O‘z avlodi vakillari orasida nufuzli o‘rin egallaydigan, inson va tabiat muammosini turli badiiy rakurslarda tasvirlab kelayotgan yozuvchi Normurod Norqobilov asarlarida ko‘p ijodkorlarning e’tiboriga tushmagan, real, naturalistik, shu bilan birgalikda, nabotot, hayvonot, jamodotga xos teran falsafa ohanglariga guvoh bo‘lamiz [2:75].

Yozuvchi ijodida badiiy peyzaj alohida o‘rin tutadi. Badiiy niyat, muallif nazarda tutgan g‘oyani ifoda etuvchi peyzajning N.Norqobilov kichik nasriy asarlarida o‘rni katta. U peyzajni turli usullar orqali qo‘llash bilan hikoya janrining imkoniyatlari keng ekanligini ko‘rsatib beradi [3:469].

Peyzaj – (fransuzcha **paysage** – joy, manzara) badiiy adabiyotda aks ettirilgan tabiat manzarasi tasviri. Inson tabiatning bir uzvi sifatida undan zavqlanadi, bahra oladi. Insonning tabiatga munosabati chuqur va keng qamrovli falsafiy-axloqiy-ma’naviy hodisa. Shuning uchun ham ushbu hodisa san’at va adabiyotning doimiy tasvir obyekti sanaladi [4:180].

Normurod Norqobilov hikoyalarida badiiy peyzaj poetik obrazlar qatorida turadi… Masalan, “Keksa tut” asarida personajlarning xatti-harakatlari, fe’l-atvori keksa tut nigohida bayon qilinadi. Natijada keksa tut va roviy subyekti qorishib, yagona obrazga aylanadi:

“Tepki zarbidan tut daraxti qattiq seskandi. U bu xil kutilmagan zarbalarga ko‘nikib ketgan esa-da, negadir bu galgisiga chidashi xiyla qiyin kechdi. Keksa tanasi ich-ichidan qaqshab, novdalarigacha zirillab va titrab ketdi, shunga qaramay, pinak buzmaslikka urindi – ichdan to‘lqin urgan ingrog‘ini shabadada tebranayotgan yaproqlari shovuriga ko‘mib, odatdagidek, qaddini adl tutdi” [5:81].

Mazkur misolda peyzaj tasviri voqelikni aks ettiruvchi fon emas, balki asarning badiiy mazmunini tashuvchi faol poetik unsur sifatida namoyon bo‘ladi. Yozuvchi hikoyada badiiy peyzaj vositasida katta janrlarga xos bugungi kunning dolzarb mavzusini tasvirlagan. Adib bolalardagi beg‘uborlik ularni erta tark etayotganligidan,

kattalardagi shafqatsizlik va nafrat yuqumli illat kabi toza qalblarni qamrab olayotganligidan hayratga tushadi [5:82].

Hikoyada syujet voqealari va qo‘shnilar o‘rtasidagi konflikt keksa tut nigohida bayon qilinadi. Tut daraxti hikoyada sabrli inson timsoli sifatida gavdalanadi. Uning muntazam ravishda og‘riqli zarbalarni qabul qilishi, tanasining qaqshab zirillashi hamda olgan og‘riqlarini yashirib qaddini adl tutishi bu obrazning ramziy mohiyatini ochib beradi. Hikoya davomida tut daraxti tashqi zarbalardan ham ko‘ra atrofida yuz berayotgan ichiqoralik, hasadgo‘ylik, oqibatsizlik kabi illatlardan aziyat chekadi. Yozuvchi keksa tut obrazi orqali har qanday sabrning chegarasi borligini, inson qalbi doimiy ma’naviy bosim ostida qolsa, bunday holat uning ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi.

“Yetim qolgan gullar” hikoyasida garmsel voqealar garmsel nigohi orqali hikoya qilinadi. Bu hikoya ham peyzaj tasviri bilan boshlanadi:

“Qaynoq garmsel har quturganda, shaharcha quyuq to‘zon ichida qoladi.

U biydek dashtning qoq kindigida bo‘y rostlagan bu shaharchani yer yuzidan supurib tashlamoqqa ahd qilgandek, to‘lg‘anib, yulqinib quyun uyirib esadi. So‘ng shiddati andak susaygandek bo‘ladi-da, tag‘in yangidan kuch olib, ko‘p qavatli qizg‘ish g‘ishtin uylar-u ko‘kka nayzadek sanchilgan quvuridan kun-u tun ko‘kish-qoramtir tutun arimaydigan korxonaning katta-kichik, baland-past binolarini qaynoq nafasi bilan yalab, shahar ko‘chalari bo‘ylab och bo‘riday izg‘irgan, o‘tkinchilarning yuzi-ko‘ziga qum sochgani yetmagandek qandaydir mo‘jiza bilan omon qolgan yo‘l bo‘yidagi yakkam-dukkam daraxtlarga yopishadi, ular vujudidagi oxirgi namlikni so‘rib olish payida kuyib-pishadi”.

Ushbu parchada peyzaj tasviri orqali katta ekologik muammolar ochib beriladi. Bir tomondan o‘zini har yerga urib tiriklikka qarshi urush olib borayotgan vayronkorlik, buzg‘unchilikni aks ettirgan garmsel bilan tanasida ozgina bo‘lsa-da namlikni saqlab hayot uchun kurash olib borayotgan tabiat kurashi aks etadi. Garmsel harakatlari shiddat bilan kechadi. U dasht qo‘ynida paydo bo‘lgan bu shaharchani vayron qilib, o‘z hukmronligini o‘tkazish uchun tinimsiz harakat qiladi. Katta kuch sarflaydi. Hikoyada bir tomondan garmsel tiriklikka tahdid solsa, ikkinchi tomondan “kun-u tun ko‘kish-qoramtir tutun arimaydigan” korxona inson va tabiat o‘rtasidagi konfliktni aks ettiruvchi detal vazifasini bajaradi. Natijada tabiat va inson omili bir-biriga qarama-qarshi emas, balki ekologik muhitning tanazzuliga sabab bo‘layotgan o‘zaro uyg‘un ikki kuch sifatida tasvirlanadi.

Hikoyadagi gullar obrazi noziklik, go‘zallik va himoyaga muhtoj tiriklik ramzi sifatida talqin etiladi. Garmselning ularga qarshi qaratilgan harakatlari esa hayot va go‘zallikka tahdid soluvchi vayronkor kuchlarning badiiy ifodasini yuzaga keltiradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Normurod Norqobilov hikoyalarida tabiat manzaralari syujet va obrazlar tizimining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, asarning asosiy g‘oyasini ifodalashda faol ishtirok etadi. Gul, daraxt, garmsel kabi obrazlar muayyan xarakter va ma’no kasb etib, insoniy fazilatlar hamda jamiyatdagi muammolarni yoritishga xizmat qiladi. Natijada tabiat hikoyalarda kuzatuvchi, guvoh, baholovchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xayrullayev, A. 2023. “Normurod Norqobilov hikoyalarining poetik o‘ziga xosligi”. O‘zbekiston: til va madaniyat, 3 (2).

2. Xayrullayev, A. 2024. “Normurod Norqobilov hikoyalarining kompozitsiyasi”. O‘zbekiston: til va madaniyat. 4 [1].

3. “Sharq-u G‘arb adabiyotida gumanizm: Navoiy va Pushkin” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – Toshkent: Nurafshon business, 2024.

4. Салаев Ф. Қурбониёзов Ғ. Адабиётшунослик атамаларининг изоҳли сўзлиги. – Т.: “Янги аср авлоди”, 2010.

5. Ҳамраев К. Ҳикоя Композицияси. –Тошкент, 2020.